O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 8 - aprel 128-10-212-Q/22 Toshkent tuman hokimligi

Ko‘p kvartirali uylarni samarali boshqarish tizimini tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-noyabr kunidagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi 581-son Qonuni hamda “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 iyundagi PQ-5152-son Qarori bilan belgilangan vazifalarning ijrosini o‘z vaqtida, sifatli va samarali ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent tumani Ozodlik mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan 17 ta ko‘p kvartirali uylar mulkdorlarining mazkur uy-joy fondlariga xizmat ko‘rsatuvchi Boshqaruvchi tashkilot “KELES BEAM SERVICE” mas’uliyati cheklangan jamiyati yangi boshqaruv organini tashkil etish yuzasidan 2022-yil 2-fevral kunidagi 1-son umumiy yig‘ilish qarori;

- ushbu umumiy yig‘ilish qarorlari va uy-joy mulkdorlarining tashabbusi bilan 27 ta ko‘p kvartirali uylar negizida “KELES BEAM SERVICE” MChJ shaklidagi ko‘p kvartirali uylarni yangi boshqaruv tashkiloti tashkil etilganligi;

- O‘zbekiston Respublikasining “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasiga ko‘ra, “KELES BEAM SERVICE” MChJ shaklidagi boshqaruv tashkiloti umumiy mol-mulkni boshqarish, unga texnik xizmat ko‘rsatish va uni ta’mirlash, shuningdek ko‘p kvartirali uyga tutash yer uchastkasini obodonlashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilgan va ishlar

bajarilgan taqdirda, xizmatlar ko‘rsatish va ushbu ishlarni bajarishga taalluqli qismi bo‘yicha barcha turdagi soliqlarni to‘lashdan ozod etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “KELES BEAM SERVICE” MChJ tasarrufiga o‘tayotgan ushbu 27 ta ko‘p kvartirali uylar xizmat ko‘rsatayotgan ATB “Mikrokreditbank” Keles filiali boshqaruvchisi I.Abdukadirov, Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi bosh mutahassisi J.Berdiev, “KELES BEAM SERVICE” MChJ direktori N.Kurbanovlar bilan birgalikda **bir oy muddat ichida**:

- “Keles-kommunalchi” XUJMSh zimmasidagi kreditlarni “KELES BEAM SERVICE” MChJ shaklidagi boshqaruv tashkilotiga qayta rasmiylashtirsin hamda debitorlik qarzlar va kreditlar bo‘yicha qarzlarni belgilangan tartibda o‘tkazsin.

Mazkur xizmat ko‘rsatuvchi tijorat banklariga:

- Ushbu qaror kuchga kirgan kundan e’tiboran “Keles-kommunalchi” XUJMSh tasarrufida bo‘lgan 27 ta ko‘p kvartirali uylarning alohida ochilgan bankdagi hisob raqamlarini yopish;

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan oshmaydigan stavkalar bo‘yicha “KELES BEAM SERVICE” MChJ shaklidagi boshqaruv tashkilotiga imtiyozli kreditlar ajratish tavsiya etilsin.

3. Ozodlik mahallasida joylashgan 27 ta ko‘p kvartirali uylar yangi tashkil etilgan “KELES BEAM SERVICE” MChJ shaklidagi boshqaruv tashkilotiga biriktirilsin va boshqaruv tashkilotining ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

- Ozodlik mahallasida joylashgan 27 ta ko‘p kvartirali uy-joy fondlarini saqlash, undan foydalanish va ta’mirlash sohasidagi bozor mexanizmlarini, jumladan, davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida bosqichma-bosqich joriy etish;

- ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olgan holda, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bozorining jozibadorligini oshirish, shuningdek, narx belgilashning raqobat mexanizmlariga o‘tish;

- uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimiga energiya tejaydigan texnologiyalar hamda uskunalarni joriy etish, shuningdek, uy-joy kommunal xo‘jalik obyektlarini zamonaviy hisobga olish asboblari bilan jihozlash;

- kommunal xizmatlar yagona billing tizimini yaratish va iste’molchilarning unifikatsiya qilingan shaxsiy hisob raqamini joriy etish;

- uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi mutahassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

4. Toshkent tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov “Davlat Kadastlar Agentligi xizmati” tuman filiali, tuman Qurilish bo‘limi, “KELES BEAM SERVICE” MChJ va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

- **uch kun muddat ichida** yangi tashkil etilgan boshqaruv tashkilotiga xizmat xonalarini qurish uchun yer ajratish va quriladigan boshqaruv tashkiloti xizmat xonasining loyiha chizmasiga oid aniq takliflarni kiritsin;

- besh kun muddat ichida Ozodlik mahallasi hududida joylashgan 27 ta ko‘p kvartirali uylarni joylashuv haritasini ishlab chiqish va uylarga tutash hududlar chegaralarini belgilash bilan bog‘liq ishlarni yakunlasin;

- o‘n kun muddat ichida Ozodlik mahallasi hududida joylashgan 27 ta ko‘p kvartirali uylarning tutash hududlarini ko‘rsatgan holda pasportlashtirish ishlarini nihoyasiga yetkazsin;

- o‘n besh kun muddat ichida Ozodlik mahallasi hududida joylashgan 27 ta ko‘p kvartirali uylarga tutash hududlar yer maydonlariga bo‘lgan huquqlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ishlarini yakunlab, tasdiqlash uchun tuman hokimligiga taqdim etsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov tuman Moliya bo‘limi, tuman Davlat soliq inspeksiyasi va xizmat ko‘rsatuvchi tijorat banki bilan birgalikda **o‘n kun muddat ichida**:

- Ozodlik mahallasida joylashgan 27 ta ko‘p kvartirali uylardagi noturar joylarini aniqlab, ular bilan yangi boshqaruv tashkiloti o‘rtasida shartnomalar tuzilishini tashkil qilsin;

- ko‘p kvartirali uy mulkdorlari zimmasiga majburiy badal qarzlarini qonunda belgilangan qisqa muddatlarda undirilishida amaliy yordam ko‘rsatsin;

- boshqaruv tashkilotini iqtisodiy sog‘lomlashtirish uchun aniqlangan boshqa yangi moliyaviy manbalarni amaliyotga tatbiq etish choralarini ko‘rsin;

- boshqaruv tashkilotining ko‘p kvartirali uylarni boshqarishdagi ishini samarali tashkil etish, uni moddiy-texnika bazasini mutahkamlash uchun qaytarish

asosida unga mablag‘lar ajratishga oid takliflarni ishlab chiqsin va tuman hokimligiga taqdim etsin.

6. Tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi bosh mutahassisi J.Berdiev “KELES BEAM SERVICE” MChJ, viloyati uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi va xizmat ko‘rsatuvchi tijorat banklari bilan birgalikda **o‘n kun muddat ichida**:

- yangi boshqaruv tashkiloti tasarrufidagi ko‘p kvartirali uylarning texnik holati bo‘yicha nuqson dalolatnomalarini tuzsin;

- tayyorlangan nuqson dalolatnomalariga asosan bugungi kunda ta’mirga muhtoj bo‘lgan uylarda amalga oshiriladigan ta’mirlash-tiklash ishlarining Dasturini ishlab chiqsin;

- ta’mirlanishi lozim bo‘lgan uylar uchun sarflanadigan xarajatlarning miqdori va moliyaviy manbalarini aniqlab, bu boradagi asoslantirilgan takliflarni tuman hokimiga taqdim etsin.

7. “KELES BEAM SERVICE” MChJ N.Kurbanov, ko‘p kvartirali uylarning umumiy mol-mulkini sifatli saqlash, avariya-tiklash xizmati faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, ko‘p kvartirali uylar va unga tutash hududlarda olib boriladigan ta’mirlash-tiklash va qurilish ishlarini Uy-joy kodeksi, Yer kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Shaharsozlik kodeksi va boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga qat’iy rioya etgan holda tashkil etish, ta’minlash, olib borish va amalga oshirishda shaxsan javobgar ekanliklari belgilab qo‘yilsin.

8. Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, tuman uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi bosh mutaxassis J.Berdiev, “KELES BEAM SERVICE” MChJ tomonidan ko‘p kvartirali uylarni tizimli saqlash, uni kuz-qish mavsumiga tayyorlash, uy-joy mulkdorlarining xavfsizligini ta’minlash, uylarni texnik holatini yaxshilash, uy-joy fondi va unga tutash hududlardan samarali foydalanishga oid faoliyati amaldagi qonun talablari asosida olib borilayotganligi ustidan muntazam ravishda nazorat olib borsin.

9. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari D.Ismoilova tegishli manfaatdor va mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasining “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunining ijrosi, o‘tkazilayotgan huquqiy eksperimentning mohiyati va vazifalarini muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida yoritib borilishini, shuningdek

bu borada amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha aholi o‘rtasida keng tushuntirish ishlari o‘tkazilishini ta’minlasin.

10. Ushbu qaror ijro uchun barcha manfaatdor idora va mutasaddi tashkilotlarga yuborilsin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**